

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/2 (6) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli

KHIVA (KHOREZM) STATE AS AN ACTIVE AGENT:

DIPLOMACY, ECONOMY, AND RUSSIAN INTERACTION, 1806–1825 10-22

Rahmatilloev Nusratillo

BUXORO AMIRLIGI VA QO'QON XONLIGI O'RTASIDAGI SIYOSIY

JARAYONLARNING QO'QON XONLIGI TARIXSHUNOSLIGIDA YORITILISHI..... 23-27

Sattarov Akram Madaminovich

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI AHOLISINING IJTIMOIIY HAYOTI..... 28-33

Джаббаров Юлдуз Джуманиязовна

ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ЮРИДИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ

В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА 34-38

Boyto'rayev Sirojiddin Usmon o'g'li

SURXONDARYO VILOYATI MUZEYLARI VA TURIZM SALOHIIYATINING

SHAKLLANISHIDA: TERMIZ O'LKASHUNOSLIK MUZEYINING O'RNI 39-43

Qobulova Gulzoda Maxsud qizi

O'RTA ASR MANBALARINI RAQAMLASHTIRISHNING ILMIY ZARURATI

VA KONSEPTUAL ASOSLARI..... 44-49

Qudratillayev Parviz

KONFUTSIYLIK TA'LIMOTIDA IJTIMOIIY HIMOYA MASALALARI 50-53

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Юлдашева Надира Викторовна

НОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ ПРЕВЕНТИВНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ

ЗАКУПОК В УЗБЕКИСТАНА: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ПРАВОВЫЕ НОВАЦИИ 54-63

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Saifnazarov Ismail Saifnazarovich

MAHALLA – O'ZBEK JAMIYATINING TARIXIY MEROSI,

MAMLUKAT TINCHLIGI VA RAVNAQINING ASOSIY POYDEVORI 64-69

G'ulomov Abdullo

MAHMUD LOMISHIYNING "TAMHID" ASARIDA IMOMAT BORASIDAGI

QARASHLAR TAHLILI..... 70-76

Axmedov Xamdam Alikulovich

XALQARO EKOLOGIK ADOLATNI TA'MINLASHDA TRANSCHEGARAVIY MAS'ULIYAT,

"UMUMIY VA DIFFERENTIALLASHGAN JAVOBGARLIK" MUAMMOLARI 77-81

Raxmonov Shohzod Husan o'g'li

YOSHLAR AXLOQIY TAFAKKURI VA MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA

NURONIYLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI..... 82-85

<i>Oripov Shuxratjon Orip o'g'li</i> RAHBAR KADRLAR MA'NAVIY QIYOFASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY MODEL.....	86-93
<i>Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li</i> IMMANUEL KANT FALSAFASIDA NOUMENAL ERKINLIK VA FENOMENAL DETERMINIZMNING ANTINOMIK TABIATI: TRANSCENDENTAL KONTEKSTDA TAHLIL	94-98
<i>Safarov Akbar Isoqulovich, Ziyotova Adolat Ergashovna</i> EKOLOGIK MADANIYAT YUKSAKLIGI, HUQUQIY ONG VA TABIAT-JAMIYAT INSONNING UZVIY BOG'LIQLIGI	99-103

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Musayev Akmalbek Ibragimdjaniyovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA EVFEMIZATSIYA VA YUMSHATISH STRATEGIYALARINING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI	104-110
<i>Bazarov Zokir Mehrikulovich</i> A.QODIRIYNING "O'TKAN KUNLAR" ROMANI TARJIMALARIDA LINGVOKULTUROLOGIK KOMPETENSIYA KOMPONENTLARINING IFODALANISHI	111-114
<i>Kuchiyev Malik Abdumannonovich</i> ILOVA QURILMA TARKIBIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING STILISTIK FUNKSIYALARI	115-120
<i>Абдуллаева Парвина Толибжоновна</i> ТЕМПОРАЛЬНЫЙ ОБРАЗ В ИСПАНСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПАРЕМИОЛОГИИ.....	121-123
<i>Ismoilova Fotima</i> ISAJON SULTONNING "BILGA XOQON" ROMANIDA TO'QIMA OBRAZLARINING BADIIY VAZIFASI	124-129
<i>Eshqulov Sunnat</i> PESHLAVHALARNING TIL XUSUSIYATLARI VA IMLO MUAMMOLARI XUSUSIDA.....	130-134

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Yo'ldoshev Azizjon Ergash o'g'li</i> OMMAVIY ISHTIROK DARAJALARINI ANIQLASHNING AYRIM HUQUQIY MASALALARI	135-139
<i>Saginidikov Maxset Djubaktanovich</i> CONSTITUTIONAL AND LEGAL ESSENCE OF COOPERATION BETWEEN COUNCILS OF PEOPLE'S DEPUTIES AND CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS	140-147
<i>Rajabov Umrbek Ravshanbekovich</i> OILA-TURMUSH MUNOSABATLARI DOIRASIDAGI JINOYATLARNI BARTARAF ETISHDA PROFILAKTIKA INSPEKTORLARI FAOLIYATINING KRIMINOLOGIK MEKANIZMLARI	148-152
<i>Bekov Ixtiyor Rustamovich</i> KONSTITUTSIYAVIY ODIL SUDLOVNI ILM VA TA'LIM BILAN UYG'UN RIVOJLANTIRISH MASALALARI	153-157
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ ИНИЦИАТИВЫ РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН И ИХ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ГЛОБАЛЬНОГО ДИАЛОГА	158-164

<i>Ahmedov Islom Baxtiyor o'g'li</i> ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA RAQOBATBARDOSH PROFESSIONAL VA ZAMONAVIY KADRLARNI TAYYORLASH: MAQSAD VA VAZIFALAR	165-168
<i>Fayzulloev Shohijaxon Jobirovich</i> JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZOLIK BOSQICHIDA SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH MASALALARI	169-176
<i>Turgunboeva Mamura</i> SOME ISSUES OF COPYRIGHT PROTECTION ON THE INSTAGRAM SOCIAL NETWORK	177-181
<i>Mamataliyeva Shahnoza Xushmamat qizi</i> JINOYAT PROTSESSIDA XAVFSIZLIK CHORALARI QO'LLASH JARAYONIDA ISBOT QILISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	182-192
<i>Shokirova-Inomjonova Mashhuraxon G'ayratjon qizi</i> IJTIMOIY SOHA TUSHUNCHASINING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI	193-196
<i>Turayeva Dildora Iskandarovna</i> ICHKI ISHLAR ORGANLARINING JAMOAT XAVFSIZLIGIGA OID FAOLIYATINI AXBOROTLAR BILAN TA'MINLASHNING TURLARI, SHAKLLARI VA BUGUNGI KUNDAGI HOLATI	197-206
<i>Абдужаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАССЛЕДОВАНИЯ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	207-215
<i>To'rabayeva Ziyoda Yakubovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VOYAGA YETMAGANLARNI JINOIY JAVOBGARLIK VA JAZODAN OZOD QILISHGA DOIR QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH	216-227
<i>Abdusamiyeva Dilrabo Abduvaxob kizi</i> THE ROLE OF THE PENITENTIARY SYSTEM IN THE RESOCIALIZATION OF PERSONS RELEASED FROM PENAL INSTITUTIONS	228-233
<i>Bekmirzayeva Umida</i> DAVLAT ISHTIROKIDAGI AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KUZATUV KENGASHLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI A'ZO-MASLAHATCHI SIFATIDA JORIY ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI	234-237
<i>Суннатиллаева Сарвиноз</i> НАДЛЕЖАЩАЯ ПРАВОВАЯ ПРОЦЕДУРА В ПРОИЗВОДСТВАХ ПО ДЕЛАМ О КОНКУРЕНЦИИ В ЕВРОПЕЙСКОМ СОЮЗЕ И УЗБЕКИСТАНЕ	238-244
<i>Mardonova Gulsanam Bahodir qizi</i> GIYOHVANDLIK VOSITALARINING VIRTUAL OLAMDA SOTILISHI, NARX SHAKLLANISHI, HUQUQIY BAHOLASH VA EKSPERTIZA MUAMMOLARI	245-252
<i>Isoqov Habibilla Jakparaliyevich</i> PUL YUVISHGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI XALQARO VA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR, ULARNING FUNKSIYA VA VAZIFALARI.....	253-261
<i>Хван Леонид Борисович, Гулимова Зилола Шухратовна</i> ЦИФРОВИЗАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНОГО СУДОПРОИЗВОДСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	262-268
<i>Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZ XODIMLAR FAOLIYATIDA XIZMAT INTIZOMI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	269-275

<i>Zinelbaev Baxitjan Qublan o'g'li</i> YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MA'MURIY-HUQUQIY MEKANIZMLARNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI (O'ZBEKISTON TAJRIBASI)	276-281
<i>Xo'jayeva Malohatxon Fozilxo'ja qizi</i> MA'MURIY Hujjatni tushunish va qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari	282-286
<i>Toshkanov Nurbek Bahriddinovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARI – TADBIRKORLIK SUBYEKTI SIFATIDA	287-295
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Rustamov Ilkhom Tursunovich</i> DIDACTIC POTENTIAL OF THE LINGUOPRAGMATIC APPROACH IN TEACHING SMALL-GENRE TEXTS	296-300
<i>Kaypnazarov Sraijatdin Gayratdinovich</i> «ELEKTR BO'LIMI» BO'YICHA RAQAMLI TA'LIM MUHITINI YARATISH: QORAQALPOG'ISTON MAKTABLARI MISOLIDA.....	301-307
<i>Bozorov Zokir, Axtamaliyev Shamshod, Karimov Dilshod, To'rayeva Lobar</i> VEKTORLAR ALGEBRASINING ELEMENTAR MASALALAR YECHISHGA TATBIQI	308-315
<i>Abduraxmonova Tuxtapashsha Rustamovna</i> IONLI POLIMERLANISH REAKSIYASINI O'QITISHDA 3D VA VIRTUAL TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	316-322
<i>Yaxshilikova Nargiza</i> BLENDED LEARNING STRATEGY IN TEACHING ENGLISH	323-327

Received: 30 January 2026
Accepted: 15 February 2026
Published: 28 February 2026

Article / Original Paper

THE ELEVATION OF ECOLOGICAL CULTURE, LEGAL AWARENESS, AND THE ORGANIC CONNECTION OF HUMANS WITH NATURE AND SOCIETY

Safarov Akbar Isoqulovich

Associate Professor, Samarkand State
University of Architecture and Civil Engineering
E-mail: akbar@gmail.com

Ziyotova Adolat Ergashovna

Senior Lecturer, Samarkand State
University of Architecture and Civil Engineering
E-mail: ziyotova.adolat@bk.ru

Abstract. This article discusses the concept of ecological culture and the relationship between nature, society, and people. The author analyzes that the multi-layered integration of legal culture, legal consciousness, environmental legislation, environmental policy, and the ecological education system in the formation of ecological consciousness serves to create an organizational and legal model of such harmony. Based on a questionnaire among students, it was shown that ecological culture and the interconnectedness of the "Nature-Society-Man" system are closely related, and the level of ecological legal consciousness of people in society is determined.

Keywords: ecological culture, nature, family, human, consciousness, law, environment, sustainability.

EKOLOGIK MADANIYAT YUKSAKLIGI, HUQUQIY ONG VA TABIAT-JAMIYAT INSONNING UZVIY BOG'LIQLIGI

Safarov Akbar Isoqulovich

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti dotsenti

Ziyotova Adolat Ergashovna

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologik madaniyat tushunchasi va tabiat, jamiyat, insonlar o'rtasidagi bog'liqlik yoritilgan. Muallif ekologik ongning shakllanishida huquqiy madaniyat, huquqiy ong, ekologik qonunchilik, ekologik siyosat va ekologik ta'lim tizimi o'rtasidagi ko'p qatlamli integratsiya aynan shunday uyg'unlikning tashkiliy-huquqiy modelini yaratishga xizmat qilishi tahlil qilingan. Talabalar orasida so'rovnoma asosida ekologik madaniyat va "Tabiat-Jamiyat-Inson" tizimida o'zaro uzviy bog'liqligi, insonlarni jamiyatda ekologik huquqiy ongi qay darajada ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, tabiat, jamiyat, inson, ong, huquq, atrof-muhit, barqarorlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N15>

Kirish. Tabiat, inson va jamiyat o'zaro uzviy bog'liq tizim bo'lib, tabiat inson yashashi uchun asosiy muhit, jamiyat esa uning ijtimoiy tashkil etilishidir. Inson tabiat qonunlariga bo'ysunib, uni o'zgartiradi va jamiyatda rivojlanadi, natijada bu uchlik uyg'unligi geoekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlaydi. "Tabiat-Jamiyat-Inson" tizimi insoniyat tafakkurining eng murakkab, shu bilan birga eng uyg'un shaklini ifodalaydi. Bu tizimning

falsafiy mohiyati inson va borliq o'rtasidagi ichki bog'liqlikni, ularning o'zaro ta'sirini, bir-birini to'ldiruvchi va muvozanatga keltiruvchi jarayon sifatidagi mavjudligini anglatadi. Shu ma'noda, ekologik va huquqiy ongning uyg'unligi inson tafakkurining yuksak darajasini, ya'ni uning tabiat va jamiyat o'rtasidagi javobgarlikni anglash qobiliyatini ifoda etadi. Huquq falsafasi nuqtai nazaridan bu uyg'unlik insonning o'z erkinligini mas'uliyat bilan muvozanatlashga intilishidir, chunki erkinlik faqat qonunlar bilan chegaralanganda emas, balki tabiat qonunlariga moslashganda haqiqiy mazmun kasb etadi.

Ekologik ong – bu inson tafakkurining shunday shakli, unda tabiatni faqat tashqi muhit sifatida emas, balki inson hayotining ontologik asosi sifatida anglash mavjud. Huquqiy ong esa bu anglashning normativ shakli, ya'ni insonning o'z harakatlarini me'yoriy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish mexanizmidir. Ularning birlashuvi inson tafakkurining dialektik yuksalishini anglatadi: inson tabiatning ustidan hukmronlik qilish istagidan voz kechib, u bilan uyg'unlikda yashash madaniyatiga o'tadi. Shu uyg'unlikda huquq tabiatni himoya qilish vositasi emas, balki insonning o'z mohiyatini anglash vositasiga aylanadi, chunki tabiatni asrash – bu insonni asrashning o'zi demakdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ekologik va huquqiy ong uyg'unligi – bu ikki alohida ong shaklining simbioz emas, balki integral sintetik refleksiyasidir. Ular orasidagi aloqadorlik ontologik, aksiologik va normativ qatlamlarda mavjud. Huquq falsafasi ayni o'zaro bog'liqlikni ilmiy asosda aniqlash va institutlashtirish vositasidir. Ekologik ongni huquqiy ong bilan uyg'unlashtirish uchun huquqiy tafakkurda sezgi, estetik mas'uliyat, axloqiy imperativ va normativ shakl uyg'unlashmog'i lozim. Shundagina huquq nafaqat ijtimoiy tartib instrumenti, balki mavjudlikka daxldor ekologik etik-estetik qadriyat sifatida o'z aksini topadi.

“Tabiat–Jamiyat–Inson” tizimida har bir element o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning alohida emas, balki yaxlit mavjudligi jamiyatning barqaror rivojlanishiga asos yaratadi. Tabiatni beparvolik bilan o'zgartirish, uni faqat iqtisodiy manfaat manbai sifatida ko'rish – insonning huquqiy ongidagi nomuvozanatning belgisi bo'lib, bu holda huquq tabiatni himoya qilish vositasidan chiqib, uni cheklovchi mexanizmga aylanadi. Shu sababdan huquq falsafasi nuqtai nazaridan ekologik qonunlar – bu insonning o'zini va o'z kelajagini himoya qilish to'g'risidagi qonunlardir. Inson o'z huquqini tabiat qonunlari bilan uyg'unlashtirmas ekan, u nafaqat tabiiy muhitni, balki o'z jamiyatining ichki muvozanatini ham yo'qotadi [2].

Ekologik va huquqiy ongning uyg'unligi insonni ikki darajada takomillashtiradi: bir tomondan, u insonni axloqiy mas'uliyat darajasiga ko'taradi, ikkinchi tomondan esa, uni ijtimoiy-huquqiy mas'uliyat bilan bog'laydi. Bunday uyg'unlik natijasida inson o'zini tabiatdan ajratilgan emas, balki tabiat tizimining ongli qismi sifatida idrok etadi. Shu holatda huquq tabiatga nisbatan tashqi nazorat emas, balki ichki ongli tartibdir; u inson ongining tashqi ifodasiga, ekologik barqarorlik esa uning ichki muvozanatiga aylanadi. Bu jarayonda huquq insonning ongli faoliyatini tartibga soladi, ekologik tafakkur esa unga ma'naviy yo'nalish beradi, natijada ular birgalikda inson va jamiyatning barqaror rivojlanishining falsafiy poydevorini yaratadi.

Shunday qilib, “Tabiat–Jamiyat–Inson” tizimidagi ekologik va huquqiy ongning uyg'unligi – bu insoniyatning o'z mavjudligini borliq qonuniyatlariga moslashtirish jarayonidir. U jamiyatning faqat tashkiliy yoki me'yoriy rivojlanishini emas, balki uning ma'naviy, madaniy va ontologik yangilanishini ham ifoda etadi. Bu uyg'unlikda huquq insonni tabiatdan ajratmaydi, aksincha, uni tabiatning ongli davomchisi sifatida tiklaydi. Shu bois, huquq falsafasi

nuqtai nazaridan ekologik va huquqiy tafakkurning birlashuvi insoniyat taraqqiyotining eng yuqori bosqichidir — bu bosqichda inson erkinligi tabiat muvozanati bilan, qonuniylik esa borliq uyg'unligi bilan mushtaraklikda namoyon bo'ladi [3].

Muhokama va natijalar. Huquqiy ong ekologik me'yorlar va qadriyatlarning ijtimoiy tizimda normativ mustahkamlovchi vositasi sifatida xizmat qiladi. Ekologik qonunchilik, ekologik siyosat va ekologik ta'lim tizimi o'rtasidagi ko'p qatlamli integratsiya aynan shunday uyg'unlikning tashkiliy-huquqiy modelini yaratishga xizmat qiladi. Bugungi kunda bu uyg'unlikning yetishmasligi natijasida global ekologik muammolar yuzaga kelmoqda: iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, atmosferaning karbonatlarga to'yinish holatlari insoniyat hayotiy xavfsizligiga bevosita tahdid solmoqda. BMT tomonidan ilgari surilgan barqaror rivojlanish maqsadlari, xususan, 13-maqсад – iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash, bu global xavfning yechimini institutsional darajada hal qilishga urinishdir. Shu sababli ekologik huquqiy ong – bu nafaqat normativ intizom, balki axloqiy-eksistensial mas'uliyatdir [4].

Shu manzara doirasida "Tabiat–Jamiyat–Inson" tizimi – bu nafaqat o'zaro aloqadagi elementlar yig'indisi, balki tarixiy va falsafiy determinatsiyalangan, axloqiy-huquqiy javobgarlik bilan uyg'unlashgan va ekologik xavfsizlik mezonlari asosida boshqarilishi lozim bo'lgan murakkab tizimdir. Inson faoliyatining har bir komponenti ushbu tizimda ekologik iz qoldiradi va bu izlar iqlim, biosfera va jamiyat tuzilmasining o'zgarishlariga olib keladi. Shu bois bugungi kun ijtimoiy-falsafiy tafakkuri insonni tabiat bilan "yashirin urush"dan emas, balki hamkorlik va axloqiy uyg'unlik asosida yashashga undamoqda. Insoniyat jamiyati o'z tarixida ilk bor o'z faoliyati bilan butun biosfera taqdirini belgilaydigan qudratga ega bo'ldi, bu esa uning o'zini inkor etmasligi uchun ekologik-huquqiy javobgarlikni mutlaq darajada axloqiy ong bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Demak, inson o'zining mavjudligini davom ettirmoqchi bo'lsa, u tabiatga nisbatan ehtiyotkor va ongli yondashuvni o'zining asosiy aksiologik paradigmasiga aylantirishi zarur. Shu tarzda ekologik borliqni saqlab qolish, faqat tabiatni emas, balki insoniyatning o'zini ham saqlab qolish bilan tenglashtiriladi. "Tabiat–Jamiyat–Inson" tizimidagi ekologik va huquqiy ongning uyg'unligi zamonaviy huquq falsafasining konseptual doirasida tahlil etilganda, insoniyat faoliyati, ijtimoiy munosabatlar va huquqiy ongning shakllanishida tabiatning determinativ roli yaqqol namoyon bo'ladi. Inson – bu faqat biologik mavjudot emas, balki ijtimoiy-huquqiy ong egasi sifatida o'z tabiiy muhitiga nisbatan axloqiy, huquqiy va madaniy mas'uliyatni zimmasiga olgan subyektdir. Tabiatning jamiyatga nisbatan hukmronlik qilishi va aksincha, jamiyatning tabiatga faol ta'siri ushbu uyg'unlikning murakkabligini anglatadi [5].

Abu Rayhon Beruniy o'zining "Kitob al-Hind" asarida inson va tabiat o'rtasidagi ontologik munosabatga chuqur e'tibor qaratib, "inson o'z ongini kengaytirgan sari tabiatni idrok etish va unga nisbatan hurmat bilan yondashish imkoniyatiga ega bo'ladi" degan. Bu fikr ekologik ongning shakllanishida ilmiy bilishning roli katta ekanligini ko'rsatadi. Biroq, Beruniyning yondashuvi asosan gnoseologik bo'lib, unda insonning huquqiy mas'uliyati to'liq ochib berilmaydi. Ayni jihatdan, u faqat epistemik ongni asos qilib olgan bo'lsa-da, bu holatni huquq falsafasida faqat bilish bilan cheklab bo'lmasligi, balki javobgarlik va majburiyat doirasida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.

Abu Ali ibn Sino insonning atrof-muhit bilan bo'lgan aloqalarini "sezgi, tasavvur va tafakkur orqali idrok qilinuvchi hodisalar orqali ongda mujassamlashadi"deb ta'riflagan. Ibn Sinoning ushbu yondashuvi insonni faol biluvchi va ongli subyekt sifatida ko'rsatadi. Ayniqsa,

uning ekologik ongni ongli harakatlar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy amaliyotlar bilan uyg'unlikda tushunishga qaratilgan pozitsiyasi huquq falsafasida sezilarli ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida "fuqarolarning sog'lom va xavfsiz muhitda yashash huquqi" kafolatlangan bo'lsa-da, u bilan bir qatorda "tabiatni asrash burchi" haqida aniq mexanizmlar yetarli emas. Demak, ekologik va huquqiy ong uyg'unligi samarador bo'lishi uchun, huquq faqat erkinlikni emas, balki majburiyatni ham ifoda etuvchi mexanizm sifatida qayta talqin qilinishi zarur [2].

Zamonaviy huquq falsafasi yondashuvda ekologik va huquqiy ongning uyg'unligi "Tabiat-Jamiyat-Inson" tizimi doirasida nafaqat ijtimoiy ong shakllarining o'zaro sintezini, balki mavjudlikning aksiologik mohiyatini ham o'zida mujassam etgan murakkab struktura sifatida namoyon bo'ladi. Bu tizim, mohiyatan, inson tafakkurining tabiat bilan olib borgan tarixiy-madaniy, axloqiy va huquqiy muloqoti natijasidir. Bunday yondashuvda huquq falsafasi, ekologik ongni ijtimoiy huquqiy ong bilan uyg'un holda izohlash orqali, ongli faoliyatning normativ va aksiologik mezonlarini mustahkamlashga urinadi.

Ekologik ong insonning tabiatni obyektiv ekspluatatsiya manbai sifatida emas, balki huquqiy va axloqiy dialog subyekti sifatida anglashini taqozo etadi. Biroq ushbu dialektik birlikni tasvirlashda yetarlicha paradokslar mavjud. Huquqiy ong, ko'pincha, ijtimoiy normalar tizimiga asoslangan bo'lib, "normativ sanksiyalar" va "konstitutsiyaviy legitimlik" asosida amal qiladi. Ekologik ong esa ko'proq aksiologik-intuitiv asosga tayangan axloqiy ong shaklidir. Boshqacha aytganda, ekologik ong axloqiy irodaga tayanadi, huquqiy ong esa davlat apparatining institutsional kuchiga. Ular orasidagi uyg'unlik faqatgina huquqiy aksiologik yondashuv orqali, ya'ni huquqning faqat davlat tomonidan emas, balki axloqiy ong orqali ham asoslanishi bilan yuzaga keladi [6].

Ekologik madaniyatning rivojlanish jarayoni "barqaror rivojlanish" konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq. Bu konsepsiya inson faoliyatining ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini yagona tizimda uyg'unlashtirishni ko'zda tutadi

Ekologik madaniyatning huquqiy jihatdan shakllanishi, avvalo, ekologik qonunchilik tizimining rivoji, ekologik huquqlarni kafolatlovchi institutlarning mavjudligi va ularni amalda qo'llash bilan belgilanadi. Shuningdek, ekologik madaniyatning shakllanishi iqtisodiy, axborot-kommunikatsion va madaniy omillar bilan ham uzviy bog'liqdir. Bugungi globallashuv sharoitida urbanizatsiya, sanoatlashuv va iste'mol jamiyati jarayonlari ekologik ongni shakllantirishda ikki tomonlama rol o'ynaydi: bir tomondan, ular atrof-muhitga salbiy ta'sirni kuchaytirs, ikkinchi tomondan, ekologik masalalarni hal etish uchun yangi texnologik imkoniyatlarni yaratadi. Shuning uchun ekologik madaniyat – bu faqat nazariy tushuncha emas, balki ijtimoiy-huquqiy va axloqiy faoliyat tizimidir [3].

Ekologik madaniyat – bu inson va tabiat o'rtasidagi huquqiy, axloqiy va ma'naviy uyg'unlikning falsafiy shaklidir. Uning rivoji jamiyatdagi barqarorlikni, ekologik adolatni va kelajak avlodlar farovonligini ta'minlaydi. Shu bois, ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonlari falsafa, huquq, iqtisod va axloq fanlari chorrahasida, barqaror rivojlanish konsepsiyasi asosida olib borilishi zarur.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, "Tabiat-Jamiyat-Inson" tizimidagi ekologik va huquqiy ongning uyg'unligi, jamiyatni barqaror rivojlantirish va insonni ongli ijtimoiy-huquqiy subyekt sifatida shakllantirishda fundamental falsafiy omildir. Bu uyg'unlik faqat normativ-

huquqiy hujjatlar orqali emas, balki falsafiy-ma'naviy asoslar orqali chuqur integratsiyalashgan bo'lishi kerak.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Sh.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. Ibn Sino. Kitob un-najot. – T.: Shark, 1986. – 224 b.
3. Karimov A. Tabiat–Jamiyat–Inson: Falsafiy-huquqiy model. // Ilm va taraqqiyot. – 2021. – B. 136.
4. Karimov I.A. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 65 b.
5. Qo'ziliyev T. Ekologik madaniyatning shakllanish va rivojlanish xususiyatlari. – T.: XT "Rizayev M.X.", 2007.
6. Shukurov R. Ekologik ong va antropotsentrizm. // Tafakkur. – 2020. – №3. – B. 43.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).